

PUL BOZORI VA LIKVIDLIK SHARHI QISQA TAVSIF


2026-YIL I CHORAGIDA

2026-yil I choragida likvidlik dinamikasi

2026-yilning I choragida bank tizimining umumiy likvidlik pozitsiyasi o'rtacha 55,4 trln so'mni tashkil etdi va bu 2025-yil IV choragiga (o'rtacha 32 trln so'm) nisbatan 74,5 foizga yuqori bo'ldi. Likvidlik profitsiti yanvar oyidagi o'rtacha 51 trln so'mdan fevral oyida 56,4 trln so'mga oshib, mart oyida o'rtacha 59 trln so'mga yetdi.


2026-yil 1-yanvardan boshlab majburiy zaxira bazasiga kiritilgan majburiyatlarni qoplash qamrov darajasi 15 foizdan 20 foizga oshirildi. Ushbu o'zgarishlarning ta'sirini yumshatish maqsadida xorijiy valyutadagi majburiyatlar bo'yicha zaxira normasi 9,5 foizdan 8,5 foizga pasaytirildi. Natijada, chorak davomida bank tizimining o'rtacha majburiy zaxiralari hajmi 17,9 trln so'mni tashkil etdi.

Bank tizimdagi umumiy likvidlik holati, trln so'm



Muomaladagi naqd pullarga bo'lgan talabning mavsumiy pasayishi I chorak davomida bank tizimi likvidligining 5,7 trln so'mga oshishiga xizmat qildi. Shu bilan birga, banklar to'lovlarning uzluksiz amalga oshirilishi va to'lov tizimining barqaror ishlashini ta'minlash maqsadida kun davomidagi foizsiz kredit instrumentidan faol foydalandilar.

Banklararo pul bozori amaliyotlari, trln so'm



Banklararo pul bozori

2026-yil I choragida banklararo pul bozori operatsiyalarining umumiy hajmi 163 trln so'mni tashkil etdi. Pul bozori faolligining choraklik YIMga nisbati 36,4 foizgacha oshdi.

REPO operatsiyalari banklararo pul bozori bitimlarining 74 foizini tashkil etib, ularning hajmi 121 trln so'mga teng bo'ldi. Banklararo depozit operatsiyalari hajmi esa 42 trln so'mni tashkil etdi.

Banklararo pul bozori segmentatsiyasi


2026-yil I choragida overnajt operatsiyalar banklararo pul bozori bitimlarining 89 foizini tashkil etdi. Muddati 2–7 kunlik operatsiyalar ulushi 2025-yil IV choragidagi 11,8 foizdan 2026-yil I choragida 8,7 foizgacha, 30 kundan ortiq muddatli operatsiyalar ulushi esa 2,5 foizdan 1 foizgacha qisqardi.

Banklararo bozor faolligi avvalgi chorakka nisbatan pasaygan bo'lsa-da, operatsiyalar hajmi va bozor ishtirokchilari soni bank tizimida likvidlikni qayta taqsimlash mexanizmlari rivojlanishda davom etayotganini hamda likvidlikni boshqarish samaradorligi oshayotganini ko'rsatmoqda.

Herfindahl–Hirschman indeksiga ko'ra, chorak davomida likvidlik jalb qilish segmentidagi konsentratsiya nisbatan yuqori darajada saqlanib qoldi. Bu yuqori likvidlik profitsiti sharoitida ayrim yirik ishtirokchilarning likvidlikni qayta taqsimlashdagi roli ortib borayotganini aks ettiradi.

2026-yil II choragida byudjet amaliyotlarining mavsumiy oshishi likvidlik o'sishini qo'llab-quvvatlovchi asosiy omillardan biri bo'lib qolishi kutilmoqda. Shu bilan birga, xorijiy valyuta va muomaladagi naqd pullarga talabning kuchayishi likvidlik profitsitini cheklashi mumkin.

Pul bozorlaridagi operatsiyalarning muddatlar kesimida ulushi, foizda




Likvidlikni tartibga solish operatsiyalari

2026-yil I choragida Markaziy bank bank tizimi likvidligini samarali tartibga solish hamda pul bozori foiz stavkalarining foiz koridori doirasida va asosiy stavkaga yaqin shakllanishini ta'minlash maqsadida asosiy likvidlik sterilizatsiyasi operatsiyalaridan faol foydalandi.

Xususan, chorak davomida tijorat banklari o'rtasida joylashtirilgan 7 kunlik Markaziy bank obligatsiyalarining o'rtacha haftalik hajmi 49,2 trln so'mni tashkil etdi. Obligatsiyalar emissiyasining o'rtacha oylik hajmi 213,6 trln so'mga teng bo'lib, eng yuqori faollik yanvar va mart oylarida kuzatildi.

Natijada, chorak davomida UZONIA stavkasi o'rtacha 13,7 foiz atrofida shakllandi. Asosiy stavka va UZONIA o'rtasidagi tafovut avvalgi chorakka nisbatan biroz kengayib, 0,3 foiz bandiga yetdi.

Pul bozorlarining benchmark foiz stavkasi, foizda



PUL BOZORI VA LIKVIDLIK SHARHI

Tizim bo'yicha yuqori likvidlik profitsiti sharoitida Markaziy bank pul bozori stavkalaridagi keskin tebranishlarning oldini olish maqsadida overnayt depozit operatsiyalaridan ham faol foydalandi. Overnayt depozit operatsiyalariga bo'lgan o'rtacha kunlik talab 2025-yil IV choragiga nisbatan 20 foizga oshib, chorak davomida 5,1 trln so'mni tashkil etdi. Chorak davomida Markaziy bankning pul-kredit siyosati operatsiyalari orqali tijorat banklari bilan o'rtacha sof pozitsiyasi 55,4 trln so'mga teng bo'ldi.

Pul-kredit operatsiyalari, trln so'm

